

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2023-yil 1-chorak yakuni bo'yicha
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "**Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida**"gi PQ-146-sonli qarori 2-bandi 2-ilovasiga asosan markaziy apparat tuzilmasining Inson resurslari va komplaens nazorati bo'limi tarkibida 1 ta komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassis lavozimi joriy etildi.

2022-yil 7-aprel kuni Qo'mitaning 19-sonli buyrug'iga asosan markaziy apparati Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limi tarkibiga kiruvchi komplaens nazorati bosh mutaxassis lavozimiga **Saidqosimov Baxtiyor Nishanbaevich** tayinlandi.

Komplayens nazorati bosh mutaxassisi tomonidan 2022-yil yakuni bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga to'liq hisobot taqdim etildi.

2023-yil 1-chorak davomida, Oila va xotin-qizlar **qo'mitasi raisi Ozoda Parpibaeva rahbarligida** qonunchilik va xizmat intizomini mustahkamlash, normativ-huquqiy hujjatlar talablarini ijroga qaratish, qo'mita faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta'minlash mavzusida yig'ilish o'tkazildi, jumladan:

- 2023-yil 17-fevral kuni 5-sonli (**kun tartibi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda 269-son va 2023-yil 25-yanvardagi 14-son farmonlari ijrosini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash**);

- 2023-yil 30-mart kuni 6-sonli (**kun tartibi: Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tizimida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilash**) yig'ilish bayonlari rasmiylashtirildi va ijroga qaratildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "**Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi 269-son va 2023-yil 25-yanvardagi "**Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida**"gi 14-son farmonlariga asosan Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyati tugatilib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etildi.

Shu munosabat bilan, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 29-apreldagi 16-sonli buyrug'i bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan **11 ta ichki idoraviy hujjatlar** qaytadan o'rganib chiqildi va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2023-yil 30-mart kunidagi 29-son buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan 11 ta ichki idoraviy hujjatlar qaytadan ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Xuddi shu kabi, 2022-yil 29-aprel kuni Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 15-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Qo'mita tizimi xodimlarining Odob-axloq qoidalari bekor qilinib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2023-yil 17-mart kunidagi 23-sonli buyrug'i bilan qayta ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Mazkur ichki idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ijroga qaratish uchun Qo'mita markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalariga yuborildi.

Shuningdek, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tizimida mehnat faoliyatini olib borayotgan barcha xodimlar (*Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari, tuman-shahar Oila va xotin-qizlar bo'limlari xodimlari, mahalladagi xotin-qizlar faollari*) uchun "**Xotin-qizlar tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish**" telegramm kanali tashkil etildi, bugungi kunda 4 mingdan ortiq xodimlarning a'zo bo'lishi va o'zaro axborot almashinib turilishi yo'lga qo'yildi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Qo'mita tizimi xodimlarining funksional vazifalarida belgilangan huquq va majburiyatlardan kelib chiqqan holda quyidagi tuzilma xodimlari lavozimlari bo'yicha:

- Markaziy apparat Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Toshkent shahar va viloyatlar oila va xotin-qizlar boshqarmalari Inson resurslari bo'yicha bosh mutaxassisi;
- Xalqaro aloqalar bo'yicha;
- Moliyaviy ta'minot xizmatini ko'rsatish bo'limi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Toshkent shahar va viloyatlar oila va xotin-qizlar boshqarmalari;
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va "**Ayollar daftari**"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan ishlash boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Toshkent shahar va viloyatlar oila va xotin-qizlar boshqarmalari

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va “**Ayollar daftari**”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limlari;

- Oilaviy, ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash boshqarmasi;
- Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilish, boshlang‘ich tashkilotlar bilan ishlash bo‘limi;

- Xotin-qizlar o‘rtasida ilm-fan va innovasiyalarni rivojlantirish bo‘limi;
- Gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘limi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Toshkent shahar va viloyatlar oila va xotin-qizlar boshqarmalari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari;

- Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi ijrochi direktori, hisobchisi;

- Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi – direktori va hisobchisi;

- “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti – direktori, kadr xodimi, hisobchisi;

- Mahalla fuqarolar yig‘inlarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha – mahalladagi xotin-qizlar faollari lavozimlari korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasida hisobot davrida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi yillik deklarasiya 44 nafar xodim tomonidan to‘ldirildi (*Hisobot davrida qo‘mitada 44 nafar xodim faoliyat yuritmoqda*).

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq qo‘mitada qisqartirishlar va lavozimlarni maqbullashtirish o‘tkazilganligi sababli 2023-yil 1-chorak davrida yangi ishga olish jarayoni to‘xtatildi.

Xodimlar tomonidan to‘ldirilgan deklarasiyalar o‘rganib chiqildi, ular orasida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi aniqlandi.

Deklarasiya to‘ldirgan xodimlar lavozimlari bo‘yicha quyidagicha toifalandi:

- boshqarma, o‘rinbosari va bo‘lim boshliqlari soni 16 ta;
- bosh va yetakchi mutaxassislar soni 24 ta;
- texnik xodimlar 4 ni tashkil etdi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish

Qo‘mita va uning hududiy bo‘linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bilan tuziladigan shartnomaga Korrupsiyaga qarshi kurashish tartiblari va manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumot kiritilishi belgilab olindi.

Kontragentlarni tekshirish

Qo'mita nomidan xaridlarni amalga oshiruvchi xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini, shaxsiy manfaatdorlik bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirilishini yoki insofsiz shartnomalar tuzilishini oldini olish maqsadida Xizmatlar ko'rsatish va moliyaviy ta'minot bo'limi tomonidan rasmiylashtirilgan **5 ta kontragent** va **29 ta xo'jalik** faoliyati bo'yicha shartnomalar o'rganildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq qo'mitada qisqartirishlar va lavozimlarni maqbullashtirish o'tkazilganligi sababli 2023-yil 1-chorak davrida ishga olish amaliyoti olib borilmadi.

V. Ta'lim va kommunikasiya

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi markaziy apparati xodimlariga muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tartiblari haqida tushuntirishlar olib borildi, shuningdek, "**Markaziy apparat**" nomli ijtimoiy tarmoq guruhiga ushbu yo'nalishda elektron ma'lumotlar joylashtirildi.

Hududlarda korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida jami **75 ta targ'ibot** tadbirlari o'tkazildi, korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlarda **1600 dan ko'p ishtirokchilar** qatnashdi, o'tkazilgan targ'ibotlarning **47 tasi yozma** ma'ruzalar va **28 tasi proektor** orqali ko'rgazmali targ'ibotlardan iborat bo'ldi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari uchun sharoit yaratish maqsadida rasmiy veb-sayt <https://wcu.uz/oz>; ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa <https://t.me/+wRbRNZx9Bd1iMjFi>; ishonch telefoni 71.202-10-83; elektron manzil b.saidqosimov@wcu.uz rasmiy veb-sayt <https://wcu.uz/oz> ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasi, shuningdek E-mail:m.egamberdieva@exat.uz va E-mail: wcudevonxona@exat.uz elektron manzili, hamda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarni keng havola qilish maqsadida alohida Rasmiy veb-saytda <https://wcu.uz/oz/pages/view/anticorruption> kabi aloqa kanallari tashkil etilgan bo'lib, 2023-yil 1-chorak davrida yuqorida ko'rsatilgan aloqa kanallari, shuningdek, og'zaki tarzda korrupsiyaviy holatlar bilan bog'liq bo'lgan murojaatlar, xabarlar kelib tushmadi.

VII. Monitoring va nazorat

Quyidagi yo'nalishlarda monitoring va nazorat amalga oshirildi:

- Ishga qabul qilish jarayoni, xodimlar bilan ishlash;

- Tegishli mas'ul xodimlar tomondan ijtimoiy yordamga muhtoj oila va xotin-qizlarga belgilangan qonuniy imtiyozlar berilishi;

- Ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan ma'lumotlarni jamoatchilik e'tiboriga yetkazilishi;

- Qo'mita faoliyati bo'yicha barcha ma'lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borilishi;

- Qo'mita va hududiy bo'linmalarida, mahallalarda olib borilayotgan huquqiy targ'ibotlarni ommaviy axborot vositalari va internet ijtimoiy tarmoqlarida yoritilishi;

- Qo'mita va hududiy bo'linmalarda Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha targ'ibot hamda tushuntirish ishlarini kuchaytirish, huquqiy targ'ibotlar tashkil etish, qo'llanma, flaeer, bukletlar tayyorlab berilishi;

- Qo'mita va hududiy bo'linmalar xodimlari va mahalladagi xotin-qizlar faollarining qonunlarga rioya qilinishi o'rganildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

2023-yil 1-chorak davrida Qo'mita tizimi xodimlari orasida qonunbuzilish holatlari kuzatilmadi.

IX. Xulosalar

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tugatilib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi deb nomlanishi munosabati bilan kelgusida xodimlarni quyidagi yangi ishlab chiqilgan tartib-taomillar bilan, ya'ni:

- lavozim yo'riqnomasi;

- ichki mehnat tartibi qoidalari;

- jamoat shartnomasi;

- odob-ahloq qoidalari;

- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma;

- qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;

- qo'mita va uning hududiy bo'linmalari xodimlari hamda mahalladagi xotin-qizlar faollari ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha nizom bilan tanishtirish.

Shuningdek, Qoraqalopog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari, tuman-shahar Oila va xotin-qizlar bo'limlari xodimlari va mahalladagi xotin-qizlar faollarini yuqorida bayon etilgan ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishtirish belgilab olindi

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tarkibiy tuzilmasida markaziy apparat Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limida komplaens nazorati yo'nalishi bo'yicha 1 ta (bosh mutaxassis) lavozim mavjud bo'lib, hududiy bo'linmalariga komplaens nazorati bo'yicha shtat ajratilmagan.

Shu munosabat bilan, qo'mita tizimining xududiy bo'linmalariga (*Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari*) komplayens nazorati bo'yicha 1 tadan shtat ajratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, tashkilotga kelib tushgan har qanday murojaat yoki ma'lumotlarni tahlil qilish va o'rganib, qonuniy tartibda ijrosini ta'minlash, shuningdek murojaatlar yoki ma'lumotlarni o'z vaqtida qabul qilmagan holatlar aniqlansa, mas'ul bo'lgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rish;

- lavozimga da'vo qilgan fuqarolarni ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishtirish, ular bilan suhbat o'tkazish va tegishli blanklar to'ldirilishini ta'minlash;

- xotin-qizlarga belgilangan imtiyozlarni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlar olib borish, monitoring yuritish va bevosita ushbu yo'nalishga mas'ul bo'lgan xodimlarni javobgarlik yuzasidan ogohlantirish haqida yozma tilxatlar olinishi belgilandi.

**Komplayens nazorati bo'yicha
bosh mutaxassis**



B.Saidqosimov